

**TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI TIZIM
TASHKILOTLARINING ISHLAB CHIQUARISH FAOLIYATI TO‘G‘RISIDA
MA‘LUMOT
(2022-yil yanvar-sentyabr)**

STANDARTLASHTIRISH SOHASIDA

Xalqaro talablar bilan uyg‘unlashgan 7 763 ta standartlar qabul qilinib, 7 968 tasi qayta ko‘rib chiqildi. Natijada standartlar soni 19 543 taga yetkazildi (80,4 %).

Ma‘lumot uchun: qurilish sohasida (2 264 ta), metallurgiya (833 ta), to‘qimachilik va charm (638 ta), axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya (1 124 ta), neft va gaz (1 354 ta), elektrotexnika (1 467 ta), kimyo texnologiyalari (1 374 ta), oziq-ovqat sanoati (2 154 ta) va boshqa sohalarda (5 224 ta) standart xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirilgan.

TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA

Jami texnik reglamentlar soni 56 tani tashkil etadi (40 ta umumiy, 16 ta maxsus). Joriy yil yakuniga qadar YevroOsiyo Iqtisodiy Ittifoqida qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lmagan 24 ta texnik reglamentni qabul qilishni nazarda tutuvchi tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihalarini hamda O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglamentni YEOIida o‘xshash texnik reglamentlar bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha tarmoq jadvali ishlab chiqildi.

YevroOsiyo Iqtisodiy Ittifoqida qabul qilingan hamda O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lmagan 24 ta texnik reglamentlaridan 3 tasi Vazirlar Mahkamasiga qarori bilan tasdiqlandi, 10 ta loyiha Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. 11 ta loyiha Adliya vazirligiga Huquqiy ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritildi qolgan 2 tasi vazirlik va idoralar bilan kelishish jarayonida.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan 11 ta texnik reglament loyihalari Adliya vazirligiga kiritilib, shundan 10 tasi Vazirlar Mahkamasiga kiritildi. Qolgan 1 ta loyiha Adliya vazirligi tomonidan Huquqiy ekspertiza natijalari bo‘yicha ijobiy xulosasi olingandan so‘ng Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi.

**STANDARTLAR VA O‘LCHOVLAR YAGONA BIRLIKDA
BO‘LISHINI TA‘MINLASH BO‘YICHA DAVLAT NAZORATI SOHASIDA**

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakildan ruxsat olgan holda joriy yil yanvar-sentabr oylarida 215 ta tadbirkorlik subyektida texnik jihatdan tartibga solish standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida qonun talablariga rioya qilinishini ta‘minlash bo‘yicha davlat nazorati o‘tkazilgan.

Shuningdek, joriy yil yanvar-sentabr oylarida xavf-tahlili asosida axborot dasturlaridan olingan ma‘lumotlarga muvofiq hududlardagi 46 ta davlat tashkilotlarida davlat nazorati o‘tkazilib, 60 nafar mas‘ul shaxsga nisbatan ma‘muriy jarima qo‘llanilgan.

Hisobot davrida yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlari bo‘yicha mahsulot muvofiqligini baholashni amalga oshirayotgan sertifikatlashtirish idoralari mas‘ul xodimlari

tomonidan sertifikatlashtirish qoidalari talablari buzilganligi aniqlangan 30 ta mas'ul xodimlarga nisbatan ma'muriy jarimalar qo'llanilgan (*Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 18-martdagi 1458-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan, mahsulotlarni sertifikatlash qoidalarini tasdiqlash to'g'risida*).

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari davomida 11 365 ta korxonada profilaktika tadbirlari o'tkazildi. Natijada 2486 ta korxonada 4 176 ta standart va texnik reglament bilan ta'minlandi, 1 337 ta korxonaning 19 650 ta o'lchash vositalari davlat qiyoslov ko'rigidan o'tkazilishi ta'minlandi hamda 560 ta korxonaga sertifikatlashtirish ishlarida amaliy yordam ko'rsatildi.

Profilaktika tadbirlari davomida o'rganilgan korxonalarning rahbarlari va mutaxassislari sohaga oid barcha qonun va qarorlar bilan tanishtirilgan.

O'LCHASHLAR YAGONALIGINI TA'MINLASH SOHASIDA

Joriy yil yanvar-sentabr holatiga 447 818 dona o'lchash vositalari (shulardan 3 795 dona o'lchash vositasi yaroqsiz deb topilgan) metrologik tekshiruvdan o'tkazildi.

Ko'rsatilgan metrologik xizmatlardan 402 041 dona qiyoslash, 31 795 dona attestatsiya va 10 187 dona kalibrlash ishlarini tashkil etadi.

Yuridik va jismoniy shaxslarning 84 184 ta murojaatlariga asosan elektr energiyasi, tabiiy gaz, ichimlik va issiq suvni hisobga olish uskunalarini (hisoblagichlarni) qiyoslash ishlari amalga oshirildi.

O'lchash vositalarining metrologik tekshiruvi natijalariva tasdiqlangan turini tan olish bo'yicha 41 dona sertifikatlari rasmiylashtirildi.

MUVOFIQLIKNI BAHOLASH SOHASIDA

O'zbekiston Respublikasining Milliy sertifikatlashtirish tizimida yanvar-sentabr oylarida 98 584 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirildi, shundan, 800 ta muvofiqlik sertifikati 1 kalendar yiliga shartnoma asosida rasmiylashtirildi, seriyali ishlab chiqarishga 5 270 ta muvofiqlik sertifikati rasmiylashtirildi.

MENEJMENT TIZIMLARINI JORIY ETISH SOHASIDA

Joriy yil yanvar-sentabr holatiga 620 ta korxonada sifat menejment tizimlari bo'yicha 1040 ta sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan:

366 ta korxonada sifat menejment tizimlari (ISO 9001);

292 ta korxonada ekologik menejment tizimlari bo'yicha (ISO 14001);

50 ta korxonada oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari (ISO 22000);

6 ta korxonada energetik menejment tizimlari (ISO 50001);

232 ta korxonada kasb-hunar, sog'liqni saqlash va xavfsizlik menejment (ISO 45001) va boshqa 94 ta menejment tizimlari.

Sifat menejment tizimlari bo'yicha sertifikatlashtirish 16 ta akkreditatsiyalangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 71 ta korxonada «OEKO-TEX» xalqaro standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

XALQARO HAMKORLIK SOHASIDA

Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasining (IEC) Bosh kotibi Filip Metzgerning joriy yil 29 martdagi bayonotiga muvofiq, IEC xalqaro tashkilotining tegishli qaroriga asosan O‘zbekiston Respublikasi IEC xalqaro tashkilotiga 2023-yilning 1-yanvaridan boshlab assotsialashgan a‘zo sifatida qabul qilindi.

2015-yildan 2021-yilgacha xalqaro Elektrotexnika Komissiyasining (IEC) 69 ta xalqaro standarti qabul qilingan bo‘lsa, hamkorlik natijasida 2022-yilda qabul qilingan Xalqaro Elektrotexnika Komissiyasi xalqaro standartlari soni 717 taga yetkazildi;

Xalqaro savdo markazi (ITC), Yevropa Komissiyasining Texnik yordam va axborot almashuvi vositasi (TAIEX), Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi (TIKA), xalkaro elektrotexnika komissiyasi (MEK), Hilfswerk International (Avstriya), PTB (Germaniya), GIZ (Germaniya), HDC (Malayziya), OIC/SMIIC, CATARC (Xitoy), Rosstandart (Rossiya), Gosstandart (Belarus) grant va texnik ko‘maklarini faol jalb etish orqali davlat va xususiy sektorda faoliyat ko‘rsatayotgan 600 ta mutaxassislarning malakasi oshirildi.

Tadbirlarga xorijiy ekspertlar Manfred Kayndler (Germaniya), Morin Logge (Belgiya), Speranta Stomff va Andrey Yorga (Ruminiya), Daniela Milanova Gorcheva (Bolgariya), jalb etilgan. O‘zbekistondagi Amerika savdo palatasi hamkorligi va “Mars Wrigley”, “Nestle”, “Coca-Cola” kompaniyalari, Ukraina Respublikasining O‘zbekistondagi elchixonasi, Ukraina Respublikasi Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish davlat xizmati, “Ukrkondprom” uyushmasi vakillari ishtirokida onlayn uchrashuv tashkil etilgan.

Xalqaro hamkorlik doirasida AQSHning ASTM International tashkilotidan neft-gaz sohasiga oid 55 ta, Yevropa Standartlashtirish Tashkiloti (CEN-CENELEC) qurilish va elektrotexnikaga oid 369 ta standartlar olingan.

Janubiy Koreyaning “Korea Conformity Laboratories” (KCL) kompaniyasi direktor o‘rinbosari doktor Chjesun Park rahbarligidagi delegatsiya a‘zolari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda 2022-2024-yillarda Janubiy Koreya grant mablag‘lari asosida barpo etiladigan konditsioner mahsulotlarini energiya samaradorligini baholash xalqaro laboratoriyasi tashkil etishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha fikr almashildi.

Uchrashuv yakuni va natijasiga ko‘ra, ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladigan o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirishga kelishildi.

Toshkent shahrida Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha davlatlararo kengashining navbatdagi 61-yig‘ilishi o‘tkazildi. Tadbir doirasida ko‘p tarmoqli o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish maqsadida Belarus, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Ozarbayjon bilan hujjatlar imzolandi.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligining standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish bo‘yicha davlatlararo Kengashining (Kengash) navbatdagi 61-yig‘ilishida ilk bor O‘zbekistonning “Indorama Kokand Textile” va “AGROMIR”

korxonalari mahsulot va xizmatlar sifati sohasida erishilgan yutuqlari uchun MDH Mukofoti laureatlari deb e'lon qilindi.

Yevropa Komissiyasining Texnik yordam va axborot almashuvi (TAIEX) vositasi, Yaponiyaning "Noritsu co. Ltd", Latviya Standartlar instituti, Latviya Milliy metrologiya markazi bilan manfaatli uchrashuvlar o'tkazilib, Agentlikning standartlashtirish, muvofiqlikni baholash va metrologiya yo'nalishlarini rivojlantirish uchun grant ajratilishiga erishildi.

"Quality Farm" hamda "Medical manufacture center" korxonalariga xalqaro ISO 13485 va Yevropaning "CE" Markirovkasi, "ASIA SILK WALLPAPER" MCHJ, "GEOBASALT PRODUCTS" MCHJ- ISO 9001, CE markirovkasi, "Global Food Exclusive" korxonasiga "SMIIC" xalqaro sertifikatlari topshirildi.

MAHSULOTLARNI EKSPORT QILISHGA KO'MAKLASHISH SOHASIDA

Joriy yilning yanvar-sentabr oylari mobaynida "Mahsulotlarni eksport qilishga ko'maklashish byurosi" tomonidan korxonalarga 1408 ta, shundan standartlashtirish – 545 ta, metrologiya – 66 ta, sertifikatlashtirish – 281 ta, qadoqlash va yorliqlash – 99 ta, sifit menejment tizimlari masalalari – 290 ta va boshqa masalalarda –127 ta konsultativ xizmatlar ko'rsatildi.

115 marotaba seminar-treninglar, 32 ta televideniya chiqishlar, gazeta va jurnallarda 31 ta maqolalar chop etildi.

Shu bilan bir qatorda, hududlarda joylashgan 172 ta tumandagi 1041 ta korxonaning 83 turdagi mahsulotlarini dunyoning 43 ta mamlakatlariga eksport qilinishida amaliy yordamlar ko'rsatildi.